



QORAQALPOQ TILINI O'QITISH METODLARI

Shamshetdinova G.A.

*Qoraqalpog`iston Tibbiyot Instituti
O`zbek tili, tillar va ijtimoiy fanlar kafedrasida o`qituvchisi*

Tayanch so'zlar: metod, usul, muallimning tushuntirishi, hikoyali tahlil, mashg'ulot, suhbatlashish, pinvort, interfaol, pedagogik texnologiya, insduktiv, deduktiv.

Ключевые слова: метод, методика, объяснение учителя, анализ рассказа, обучение, беседа, пинворт, интерактив, педагогическая технология, индуктивная, дедуктивная.

Key words: method, method, teacher's explanation, story analysis, training, conversation, pinworth, interactive, pedagogical technology, inductive, deductive.

Kirish. Har qanday ilm-fan sohasi ko'p yillar davomida olib borilgan tajribalar, izlanishlar, sinab ko'rishlar sababidan kashf etiladi, shakllanadi va rivojlanadi.

Qoraqalpoq tili darslarining samaradorligi – fan o'qituvchining o'qitish metodlarini yaxshi bilishi va metodni mavzuga mos to'g'ri tanlab olishi bilan aloqador. Metod-yunoncha so'z bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li nazariyasi, ta'limoti ma'nolarini ifodalaydi. Aniq vazifani hal etishga yo'naltirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llariniing yig'indisidir.

Metod - ta'lim oluvchi bilan ta'lim beruvchining belgili bir maqsadga qaratilgan hamkorliktagi ishini tashkil etishning tartibga solingan usullar yig'indisidir.

Usul - ta'lim oluvchi va ta'lim berishchining hamkorliktagi ishlarini tashkil etish yo'li. O'quvchilarga bilim berish va moslashtirish yo'llaridir.

Metodologiya. Umumiy bilim beradigan maktablarda, litsey va kollejlarda, oliy ta'lim muassasalarida qoraqalpoq tilini o'qitishda quyidagi metodlarni tadbiq qilish taklif etiladi : Muallimning tushuntirishi (bayonot), hikoya, suhbatlashish, aqliy hujum, diskussiya, muhokama, grammatik tahlil, mashg'ulotlar, kitob bilan ishlashish, rolli o`yinlar va hokazolar.

O`qituvchiing tushuntirishi – hozirda qoraqalpoq tilini o'qitishda qollanilib kelayotgan eng aktiv metod. Tushuntirish ma'lum bir materialni bayon etishi,



so'rov-javob yoki bayonot turida bo'lishi mumkin. Hikoya – oliy maktab hayotida eng ko'p qo'llaniladigan metod. Hikoya, gu`rung talabalarga, uquvchilarga oliy va o`rta maktab turmushida juda ken` qo'llaniladigan metod. Birinchidan, yangi materialni o'tayotganda o'quvchilarga yoki talabalarga so'rov tashlanadi, qoidalarga mos misollar topadi. Ikkinchidan, mavzu tushuntirilib bo'lingandan soñ, davraga savollar tashlanadi. O'quvchilar, talabalar obdan o'ylab javob beradi. Uchunchidan, o'tilgan materialni esga solish, mustahkamlash, takrorlash uchun tadbiiq qilinadi.

Muhokama. Til faktlarini muhokama qilish metodi qoraqalpoq tilini o'rganishda ko'p qo'llaniladigan metod. Bu til faktlarini nazorat qilish, grammatik tahlil va adabiy badiiy asarlarning tilini muhokama qilish turida yuritiladi.

Qoraqalpoq tili bo'yicha mashg'ulotlar - o'tilgan materialni toliq o'zlashtirish uchun beriladi. Mashg'ulotlar o'quvchini mustaqil ishlashga, o'ylanishga, o'tilgan materialni amalda qo'llanishga o`rgatadi. Induktiv va deduktiv metodlar – talabalarining, o'quvchilarning tafakkurini rivojlandiradi. Shaxsiy til faktlaridan umumiy xulosaga kelish induktiv metodi bo'lsa, umumlashgan shaxsiy faktlarni aniqlash daduktiv metodi demakdir. O'qitishning deduktiv metodidan induktiv metodiga o`tilsa, o'qituvchi va o'quvchi orasidagi aloqa shunchalik ku`chayadi.

Shu jumladan, xozirgi davrda diskussiya metodini qo'llanish katta ahamiyatga ega bo'lib bornoqda. Bu metodda o'quvchilar, talabalar ikkita guruhga bólinib, o'zaro fikr almashadilar. Keyin qayta aloqaga chiqishadi. Suhbatlashish metodida esa, o'quvchilar bir-birining savolnomasiga konvert orqali javob yozishadi. So'ng javoblar tahlil qilinadi. Muallim javoblarga izoh beradi.

Rolli o`yinlar – bunda o'quvchilar ma`lum bir mavzuga aloqador rolli o`yinlar tashkil etishadi, sahnalashtirishadi. Guruhda ijobiy kayfiyat paydo bo`ladi. 4.NATIJALAR. O'qitish metodlarining tizimini aniqlashda asosan quyidagi belgilarni ko'rsatish mumkin : 1) tegishli fanni o'qitishda uning barcha tomonini qamrashi; 2) o'rganishga tegishli materiallarni tushunishi va o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan barcha metodik usullarning o'zaro bog'lanishi va uning bitta maqsadga qaratilishi ; 3) O'qitish mazmuniniing asosiy qismini tashkil qiluvchi barcha metodlar uchun qo'llaniladigan umumiy didaktik tamoyillarning birligi.

Xulosa. Til haqida ma'lumot berganda, uni atroflicha o'rganishni taqozo etiladi. Til degan nima- degan so'rovga har kim o'zicha javob izlaydi. Fikrlar analizlanadi, umumlashtiriladi. Bunday o'qitish dunyoda dolzarb hisoblanadi



va odamdan faqatgina mantiqiy o'ylashni taqozo etmasdan, balki boshqalarning fikrlarini hurmat etishni ham taqozo etadi Hozirgi davrda o'qitishning yangidan yangi usullari, metodlari paydo bo'lmoqda. Shu tariqa yangi pedagogik texnologiya va interfaol usullar degan tushunchalar paydo bo'ldi, tabiiy holki ular ham kundalik metodlarga aylanib bormoqda. Zamonaviy talaba yoki o'quvchini darsga qiziqtirish, diqqatini tortish, kerak bo'lsa darsda "ushlab turish" oson ish emas, shunday ekan qoraqalpoq tilini o'qitish jarayonida ham kundan-kun zamonga mos metodlar soni oshib boraveradi.

Adabiyotlar:

1. Qutlumuratov B. Qoraqalpoq tilin o'qitishning ayrim masalalari. Nukus, 1992.
2. Eshmuhammadov va boshqalar. Ta'limda innavacion texnologiyalar. Tashkent, 2008
3. Golish L. V, Fayzullaeva D. M Pedagogik taxnologiyalarni biznes rejaalashtirish va loyixalashtirish. Toshkent, 2012
4. Gulamov A., Qodirov M. O'zbek tilini uqitish metodikasi. Toshkent, 2001. 5. Isabaev A. Qazaq tilin oqitiw metodikasi. Tashkent, 2023

РЕЗЮМЕ

Har qanday ilm-fan sohasi ko'p yillar davomida olib borilgan tajribalar, izlanishlar, sinab ko'rishlar sababidan kashf etiladi, shakllanadi va rivojlanadi. Qoraqalpoq tili darslarining samaradorligi – fan o'qituvchining o'qitish metodlarini yaxshi bilishi va metodni mavzuga mos to'g'ri tanlab olishi bilan aloqador. Metod- yunoncha so'z bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li nazariyasi, ta'limoti ma'nolarini ifodalaydi. Aniq vazifani hal etishga yo'naltirilgan, borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish yo'llariniing yig'indisidir.

РЕЗЮМЕ

Любая область науки открывается, формируется и развивается благодаря многолетним экспериментам, исследованиям, экспериментам. Эффективность уроков каракалпакского языка обусловлена тем, что преподаватель хорошо владеет методикой преподавания и правильно выбирает метод по теме. Метод – греческое слово, выражающее значение теории, учения о способе исследования или познания. Это совокупность практических или теоретических способов освоения сущности, направленных на решение конкретной задачи.

SUMMARY

Any field of science is discovered, formed and developed due to many years of experiments, research, experiments. The effectiveness of Karakalpak language lessons is due to the fact that the teacher has a good knowledge of teaching methods and chooses the right method for the topic. Method is a Greek word that expresses the meaning of the theory, doctrine of the way of research or knowledge. It is a set of practical or theoretical ways of assimilating an entity, aimed at solving a specific task.